

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH

AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY TA'MINOTINI
BOSHQARISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Abduboqiyev Muxammad Sharofitdinovich

Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy ta'minotini boshqarish va
samaradorligini oshirish yo'llari..... 3

Абдубокиев Мухаммад Шарофитдинович

Эффективное управление и пути повышения эффективности
финансового обеспечения акционерных обществ..... 33

Abdubokiev Mukhammad Sharofitdinovich

Effective management and ways to improve the efficiency of financial
support of joint-stock companies..... 63

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 67

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH

AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY TA'MINOTINI
BOSHQARISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.2.PhD/Iqt4051 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirildi.

Ilmiy rahbar:	Burxanov Aktam Usmanovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Xudoyqulov Xurshid Xurramovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Alladustov Rustam Djonmurotovich iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil «11» 12 kuni soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; fax: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1838 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; fax: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya aytoreferati 2025-yil «25» 11 kuni tarqatildi.
(2025-yil «25» 11 daqi 103 - raqamli reysr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotidagi keskin raqobat va moliyaviy-iqtisodiy globallashuv sharoitida investitsiyalarga bo'lgan talab oshib bormoqda. "2024-yilda jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan iqtisodiy-siyosiy muammolarga qaramasdan, jahonning yetakchi kompaniyalari tomonidan moliyalashtirish va kapitalizatsiya hajmini oshirishga erishildi. Hisobot yilida barqaror investitsiya mahsulotlari, jumladan obligatsiyalar va fondlar qiymati 20 foizga oshib, 7 trillion AQSh dollariga yetdi. Moliyalashtirishning obligatsiyalar ko'rinishidagi shakli bo'yicha emissiya hajmi 3 foizga oshib, 872 milliard dollarga yetdi va jahon bozorning umumiy qiymati 4 trillion dollardan oshdi"¹. Albatta moliyalashtirishning o'sish tendensiyalari asosan iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bugungi kunda jahon kapital bozoridagi prognozlarning mavhumligicha saqlanib qolayotganligi sharoitida iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlar tomonidan moliyalashtirishning muqobil variantlarini izlab topish hamda mavjud moliyaviy resurslardan optimal foydalanishga doir qarorlar qabul qilish dolzarb masalalardan biri sifatida saqlanib qolmoqda.

Xalqaro amaliyotda korporativ tuzilmalarning moliyaviy ta'minot manbalarini optimallashtirish, moliyalashtirishning zamonaviy instrumentlarini joriy etish, moliyaviy resurslar samaradorligini oshirishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish orqali kapital bozorini rivojlantirish masalasi ko'plab moliyaviy ekspertlar va jahondagi yetakchi kompaniyalarning asosiy mavzularidan biriga aylanib ulgurdi. Bugungi kunga kelib globallashuv jarayonlari rivojlanib borayotgan bir sharoitda kompaniyalar faoliyatini moliyalashtirishda xalqaro moliya bozorlari alohida o'rin egallaydi. Kompaniyalar tomonidan moliyaviy ta'minot manbalarini samarali boshqarish ularning istiqboldagi moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi muhim vazifalardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan kompaniyalarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish, jahon bozoridagi yetakchi investitsion sohalarga kirib borishda ilmiy-innovatsion yondashuvlardan keng foydalanish, moliyalashtirishning yangi va qulay usullarini joriy etish, davlat va korporativ tuzilmalarning moliyaviy munosabatlarini rivojlantirish, moliyalashtirish faoliyatida istiqbolli samaradorlik ko'rsatkichlarini ekonometrik tahlil qilish asosida prognozlashtirish amaliyotini takomillashtirish kabi masalalar ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlarini tashkil etmoqda.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, har qanday iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar amaliyotida kompaniyalar moliyaviy ta'minot masalasi uning istiqboldagi rivojlanish va xalqaro hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yishdagi muhim omillardan biri sanaladi. Keyingi yillarda O'zbekistonda ham aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmini bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida zamonaviy

¹ https://unctad.org/system/files/official-document/wir2024_overview_ru.pdf

xalqaro standartlarni joriy etish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilayabdi hamda qonunchilik hujjatlari mustahkamlanmoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasida “iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish” asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Darhaqiqat iqtisodiyot real sektori aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, qarorlar qabul qilishda moliyaviy texnologiyalarni tadbiq etishni jadallashtirish, moliyaviy ta‘minot manbalarini diversifikatsiya qilish, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholashning xalqaro standartlarini milliy standartlarga muvofiqlashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-son «Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020-yil 27-oktyabrdagi PF-6096-son «Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonlari, 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-son «Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2017-yil 15-sentyabrdagi PQ-3277-son «O‘zmetkombinat» AJ boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son «2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida», 2020-yil 9-dekabrdagi 775-son «Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy ta‘minotini boshqarish va samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Aksiyadorlik kompaniyalarida moliyalashtirishga doir muammolar va ularning yechimlari, moliyaviy ta‘minotni mustahkamlashda zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirishga doir mamlakatimiz va xorijiy yetakchi iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, S.Ross, Yu.Brighem, A.Damodaran, L.Gapenski, I.A.Blank, I.Ya.Lukasevich, I.V.Sergeyev, G.B.Polyak, S.V.Galitskaya, S.Ye.Kovan, V.V.Kovalyev,

V.V.Bikovskiy, N.V.Martinova, T.V.Teplovalarni keltirish mumkin.² Olimlar tomonidan zamonaviy moliyaviy boshqaruvning fundamental nazariyalarini o'rganish bilan birga kompaniyalarning moliyaviy ta'minotni mustahkamlash, ularni shakllantirish manbalarini diversifikatsiyalash, moliyaviy resurslarni boshqarish algoritmini ekonometrik modellashtirish kabi tadqiqotlar o'rganilgan va xulosalar taqdim etilgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham keyingi yillarda aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy ta'minot manbalarini samarali boshqarish va zamonaviy moliyaviy boshqaruv asoslarini tashkil etishga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, M.B.Xamidulin, R.X.Karlibayeva, A.U.Burxanov, M.P.Eshov, O.N.Xamdamov, X.X.Xudoyqulov, R.R.Abduraupov, N.A.Sherqo'ziyeva, N.R.Tursunova, A.A.Shomirov, O.Sh.Kuvatova, D.B.Begmatova, M.N.Raxmedova, A.M.Boboqulov va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida yoritilgan.³

² Stephen A.Ross The arbitrage theory of capital asset pricing. Journal of economic theory 13, 1973; Ю.Бригхем, Л. Гапенски. Финансовый менеджмент. В двух томах. «Экономическая школа» Санкт-Петербург 2001 – 497 стр.; Damodaran, A. Valuation approaches and metrics: A survey of the theory and evidence. Foundations and Trends in Finance Volume 1, Issue 8, 2007, Pages 693-784; Fundamentals of financial management/James C.Van Horne, John M.Wachowicz. – 13th ed. Prentice Hall, 2009 y. p. 27.; Ross, Stephen A, Fundamentals of corporate finance. 6th edition. North Ryde, NSW McGraw-Hill Education (Australia), 2014.- p 756.; L. Fung. Financial management. University of London 2015 y, p. 9; C.Paramasivan, T.Subramanian. Financial management. New age international Publishers – 2009 y., p. 19; Бригхем Ю., Гапенски Л. Финансовый менеджмент. В двух томах. Санкт-Петербург «Экономическая школа» 2001 – 497 стр; Бланк И.А. Финансовый менеджмент. Киев, Эльга Ника-Центр. 2004 – 655 стр.; Лукасевич И.Я. Финансовый менеджмент: 3-е изд., испр. –М.: Эксмо, 2011. – 768 с.; Сергеев И.В. Экономика организаци (предприятия): – 3-е изд. – М.: Финансы и статистика, 2008 – 576 стр.; Под ред. Поляка Г.Б. Финансовый менеджмент. – 2-е изд. – М.: ЮНИТИ-ДАНА – 2008 – 527 стр.; Галицкая С.В. Финансовый менеджмент. Финансовый анализ. Финансы предприятий: – М.: Эксмо, 2009-652 стр.; Ковалев В.В. Финансовый менеджмент: теория и практика. -3-е изд., перераб. и доп.-М.: «Проспект», 2016.-1104 с.; Ковалев В.В., Ковалев Вит.В. Финансы организаций (предприятий): – М.: ТК Велби, Изд-во «Проспект», 2006-352 стр.; Кован С.Е. Теория антикризисного управления предприятием: учебное пособие – М.: КНОРУС, 2009-160 стр.; В.В. Быковский, Н.В. Мартынова. Технологии финансового менеджмента: Издательство «Тамбовского государственного технического университета», 2008. – Ч. 1. – 80 с; Теплова Т.В. Корпоративные финансы: учебник и практикум для академического бакалавриата. – М.: Издательство «Юрайт», 2016 – 655 с.

³ Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления: автореферат дисс...д.э.н. – Ташкент, 2008.– с.12.; Karlibayeva R.X. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini samarali tashkil etish yo'llari: diss. avtoreferati. i.f.d. – Toshkent, 2018. – 14 b.; Burxanov A.U. Korxonalar moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyot Monografiya – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2019. 160 b; Eshov M.P. Korxonaning fundamental qiymatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish: diss. avtoreferati. DSc – Toshkent, 2020. – 14 b.; Xamdamov O.N. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimi metodologik asoslarini takomillashtirish diss. avtoreferati. DSc – Toshkent, 2023. – 32 b.; Xudoyqulov X.X. Aksiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini baholashning metodologik asoslarini takomillashtirish: DSc – Toshkent, 2021. – 17 b.; Abduraupov R.R. O'zbekistonda xorijiy investitsiyali korxonalar iqtisodiy salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish: diss. avtoreferati. i.f.d. – Toshkent, 2016. – 23 b.; Sherkuziyeva N.A. Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini optimallashtirish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish: diss. avtoreferati. PhD – Toshkent, 2021. – 18 b.; Tursunova N.R. Korporativ moliyani boshqarishda moliyaviy ta'minotni samarali tashkil etish yo'llari: diss. avtoreferati. PhD – Toshkent, 2019. – 15 b.; Shomirov A.A. Aksiyadorlik jamiyatlar moliyaviy resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari: diss. avtoreferati. PhD – Toshkent, 2019. – 21 b.; Begmatova D.B. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish. Iqt. fan. bo'y. fal. dok. (PhD)...avtoref. – T., 2017.; М.Н.Рахмедова Совершенствование операций с еврооблигациями как инструмента привлечения иностранных инвестиций. Монография – «Иктисод-молия», 2023 – 100 с.; O.Sh.Kuvatova Aksiyadorlik jamiyatlari investitsion faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari. PhD – Toshkent, 2024. – 24 b.; A.M.Boboqulov Iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirishni takomillashtirish. PhD – Toshkent, 2023. – 24 b.

M.Eshov va X.Xudoyqulovlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar kapital qiymatini baholash asosida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ baholash amaliyotini tashkil etishga qaratilgan. O.Xamdammov aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment mexanizmini takomillashtirish orqali moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirgan. A.A.Shomirov tomonidan aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lsa, N.A.Sherqo'ziyeva tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligini ta'minlashda dividend siyosatini rivojlantirish masalalariga asosiy e'tibor qaratilgan. O.Kuvatova tomonidan aksiyadorlik jamiyatlari investitsion faoliyatini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishga doir tadqiqotlar olib borilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining FM-1-raqamli "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy ta'minot manbalarini diversifikatsiya qilish va samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy ta'minot manbalari va ularni boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq etish;

moliyaviy ta'minotni o'z va qarz mablag'lari hisobiga shakllantirishning tashkiliy asoslarini o'rganish va asosiy farqli xususiyatlarini ajratib ko'rsatish;

moliyaviy ta'minotni mustahkamlashda xorijiy kapitalni jalb etishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash;

"O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati faoliyati va uni rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish asosida moliyaviy faoliyatni rivojlantirishga doir ilmiy takliflarni shakllantirish;

"O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati investitsion faoliyati va investitsion qarorlar qabul amaliyotini tahlil qilish asosida xulosalarni shakllantirish;

moliyaviy ta'minotni samarali boshqarishga doir xorijiy davlatlar tajribasi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini belgilash;

moliyaviy ta'minotni boshqarishda o'rta va uzoq muddatli strategiyalarni joriy etish mexanizmini takomillashtirishga doir xulosalarni shakllantirishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati va boshqa aksiyadorlik jamiyatlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti moliyaviy ta'minot manbalarini shakllantirish va samaradorligini oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy-moliyaviy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada umumlashtirish, guruhlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, dinamikada o'rganish, istiqbolli prognozlashtirish,

induksiya va deduksiya, korrelyatsion-regression tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

moliyaviy risklarni kamaytirishga qaratilgan “Konsolidasiyalashgan ishonchli moliyalashtirish” usuli yuqori daromad olish imkonini beruvchi loyihalar, aksiya va obligatsiyalarni emissiya qilish hamda imtiyozli xorijiy kredit liniyalarini o‘zlashtirish orqali ko‘p sonli mayda investorlar, kompaniya va moliya tashkilotlari bilan birgalikda moliyalashtirishga jalb qilish asosida takomillashtirilgan;

aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan korporativ obligatsiyalarni emissiya qilish va investorlarning qat’iy foiz to‘lovlarini ixtiyoriy, imtiyozli foizlarda, kompaniya aksiya va obligatsiyalariga ayirboshlash imkoniyatini beruvchi obligatsiyalarni muomalaga kiritish orqali moliyalashtirishning nobank modelidan samarali foydalanish hamda qo‘shimcha investorlarni jalb qilish taklifi asoslangan;

ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investitsiya jarayonlariga aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruv tizimida oshkoralikni ta’minlash, mas’uliyatlilik va hisobdorlik, barqaror va manfaatdor hamkorlik aloqalarini ta’minlash kabi prinsiplarni joriy etish asosida yangi UCGS (Uzbek Corporate Governance System) korporativ boshqaruv tizimini joriy etish orqali tashqi va ichki boshqaruvni samarali tashkil etish taklifi asoslangan;

O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari kapital qo‘yilmalarining CAPEX (capital expenditure) va daromadlar hajmi o‘zgarishlarini 2030-yilga qadar uzoq va qisqa muddatlarda baholovchi “Profitable forecasting” deb nomlanuvchi yuqori ko‘rsatkichli prognozlash parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aksiyadorlik jamiyatlarida qarz yoki o‘z mablag‘lari manbalari bo‘yicha samaradorlikka erishish, manbalarning iqtisodiy rentabelligidan kelib chiqqan holda optimal nisbatni shakllantirishga doir taklifi asoslangan

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy ta’minot manbalarini diversifikatsiyalashda xalqaro amaliyot tajribalaridan samarali foydalanishga doir takliflari ishlab chiqilgan;

iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar va yirik moliyaviy markazlarning moliyaviy ta’minotni mustahkamlashga doir tajribalarini tadqiq etish asosida amaliyotga foydalanishga doir ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslar ta’minotiga doir risklarni minimallashtirishda derivativlardan foydalanishning ilmiy asoslarini yanada kengaytirishga doir tavsiyalari asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan xususiy investitsiya fondlari bilan moliyaviy munosabatlarni yanada takomillashtirish orqali ikki tomonlama moliyaviy barqarorlikni oshirish imkoniyatlari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy ta’minotni samarali boshqarishning nazariy va amaliy muammolariga bag‘ishlangan tadqiqot mualliflarining ilmiy qarashlarini o‘rganish, xorijiy davlatlarning sohaga oid ilg‘or tajribasini tadqiq etish, ekspert baholash natijalariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi,

Toshkent RFB, Markaziy bank, O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasi, Davlat statistika agentligi, aksiyadorlik jamiyatlarining rasmiy manbalaridan olinganligi, shuningdek, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosa, taklif va tavsiyalarning aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy ta'minotni samarali boshqarish va samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalaridan aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy ta'minotni samarali tashkil etishning konseptual asoslari, moliyalashtirishning zamonaviy yondashuvlari va modellarini ishlab chiqishda va qo'llashda, bu borada amalga oshirilayotgan maxsus tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natijalaridan aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ta'minot manbalarini diversifikatsiya qilish, qo'shimcha moliyaviy instrumentlardan foydalanish orqali moliyaviy ta'minotni mustahkamlash, xususiy va qarz manbalari hisobiga moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, xorijiy tajribalardan samarali foydalanish orqali milliy amaliyotga tadbiiq etish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy ta'minotni samarali boshqarish va tashkil etish yo'llari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

moliyaviy risklarni kamaytirishga qaratilgan "Konsolidatsiyalashgan ishonchli moliyalashtirish" usulini yuqori daromad olish imkonini beruvchi loyihalar, aksiya va obligatsiyalarni emissiya qilish hamda imtiyozli xorijiy kredit liniyalarini o'zlashtirish orqali ko'p sonli mayda investorlar, kompaniya va moliya tashkilotlari bilan birgalikda moliyalashtirish asosida takomillashtirishga doir taklifi "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatining investitsiyalari va kreditlarini o'zlashtirish bo'yicha prognoz va maqsadli parametrlarini ishlab chiqishda foydalanilgan ("O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 1-maydagi №01/01-01-01/1329-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2023-2025 yillarda tarmoqlar va hududlar kesimida investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishning maqsadli ko'rsatkichlarni ishlab chiqishda foydalanilgan hamda aksiyadorlik jamiyati tomonidan mazkur yillar mobaynida 318,9 mln AQSh dollari miqdorida investitsiyalarni jalb qilish, pirovardida esa 550 ta yangi ish o'rinlarini yaratishga doir prognozlari asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan korporativ obligatsiyalarni emissiya qilish va investorlarning qat'iy foiz to'lovlarini ixtiyoriy, imtiyozli foizlarda, kompaniya aksiya va obligatsiyalariga ayirboshlash imkoniyatini beruvchi obligatsiyalarni muomalaga kiritish orqali moliyalashtirishning nobank modelidan samarali foydalanish hamda qo'shimcha investorlarni jalb qilish taklifi "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan ("O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 1-maydagi № 01/01-01-01/1329-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning

amaliyotga joriy etilishi natijasida “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining nominal qiymati 5 million so‘m bo‘lgan 10 000 dona jami 50 milliard so‘mlik korporativ obligatsiyalari savdo auksionlari NEGO savdo maydonchasida o‘tkazilgan bo‘lib, potensial xaridorlardan 478,5 milliard so‘mlik arizalar kelib tushgan, hamda savdo yakunlari bo‘yicha jami 50 milliard so‘mlik obligatsiyalarni fond bozoriga muvaffaqiyatli joylashtirishga erishilgan;

ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investitsiya jarayonlariga aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruv tizimida oshkoralikni ta'minlash, mas'uliyatlilik va hisobdorlik, barqaror va manfa'atdor hamkorlik aloqalarini ta'minlash kabi prinsiplarni joriy etish asosida yangi UCGS (Uzbek Corporate Governance System) korporativ boshqaruv tizimini joriy etish orqali tashqi va ichki boshqaruvni samarali tashkil etishga doir taklifi “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 1-maydagi №01/01-01-01/1329-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ishlab chiqarishning yuqori o‘sinh sur'atlarini ta'minlash, jamiyatni boshqarish tizimidagi tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, shu jumladan, yangi bozorlarni egallash hisobidan yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlarni eksport qilish hajmini oshirish, mahsulotning tannarxini tushirish bo‘yicha maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni tizimli asosda olib borishga erishilgan;

O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari kapital qo‘yilmalarining CAPEX (capital expenditure) va daromadlar hajmi o‘zgarishlarini 2030-yilga qadar uzoq va qisqa muddatlarda baholovchi “Profitable forecasting” deb nomlanuvchi yuqori ko‘rsatkichli prognozlash parametrlari “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 1-maydagi №01/01-01-01/1329-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining CAPEX va daromadlar hajmini prognozlash yondashuvlariga muvofiq CAPEX miqdori 6,44 foizga o‘sishi va daromadlar xajmi 13,52 tlrn. so‘mni tashkil etishligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan: 3 ta xorijiy, 2 ta xalqaro, 3 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 125 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob'ekt va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari aks ettirilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning «**Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy ta'minotni tashkil etishning nazariy va tashkiliy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy ta'minot manbalari va ularni boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlarini, moliyaviy ta'minot manbalarini boshqarishga doir iqtisodchi olimlarning ilmiy yondashuvlarning bayoni, o'z va qarz mablag'lari hisobiga moliyaviy ta'minot manbalarini shakllantirishning tashkiliy jihatlarini hamda moliyaviy ta'minotni mustahkamlashda xorijiy kapitalni jalb etishning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan. Tadqiqot vazifalaridan kelib chiqqan holda nazariy natija va xulosalar shakllantirilgan.

Har qanday davlatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida moliyaviy mablag'larning va ularning ahamiyati beqiyos. Ma'lumki, davlatchilikni tashkil etish va yuritishning asosiy vazifalaridan biri ham aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilgan holda munosib turmush tarzini yaratib berish hisoblanadi. Davlatning o'z oldida turgan bu kabi va boshqa dolzarb vazifalarni hal qilishda shakllangan byudjet mablag'laridan tashqari ichki va tashqi qarzlariga bo'lgan talabi shakllanib boradi. Davlat tomonidan bu kabi qarz mablag'laridan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda davlatning ichki va tashqi qarz mablag'laridan samarali foydalangan holda samarali ijtimoiy-iqtisodiy va tashqi siyosatni yuritilishi bevosita davlat tomonidan qarz mablag'larini boshqarishning ilmiy-fundamental, qonunchilik va xalqaro amaliyot tajribalaridan qay darajada foydalanilishi va rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir.

Aksariyat iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar amaliyotini tahlil qilar ekanmiz kompaniya moliyaviy resurslari o'nlab yillar davomida muhokama qilinadigan dolzarb masala bo'lib kelgan. Kompaniyaning asosiy g'oyalari va yangitdan faoliyatini tashkil etishdagi asosiy muammolardan biri ham moliyaviy resurslarni qaysi manbalar hisobiga shakllantirish va o'z vaqtida qaytarish hisoblanadi.

Qolaversa, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi tashqi omillarni prognoz qilishning murakkablashib borayotganligi, kompaniyalar oldida turgan muhim vazifalardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Olimlar tomonidan berilgan tarifda kompaniya moliyaviy ta'minotidan samarali foydalanishda tashqi omillarni prognoz qilishni murakkabligi va mazkur jarayonda kapitaldan foydalanish yuqori rentabellikka olib kelish ustuvor vazifa sifatida belgilanishi qayd etilgan.



1-rasm. Korporativ tuzilmalar faoliyatini moliyalashtirish manbalari⁴

Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan moliyaviy ta'minot manbalari va ularning zaruratiga doir quyidagi fikrlarni bildirish mumkin:

moliyaviy ta'minot korxonaning asosiy va har qanday investitsion faoliyatini amalga oshirishning muhim omili hisoblanadi;

moliyaviy ta'minot o'z va qarz mablag'lari hisobiga shakllantirilib ularning optimal miqdori korxonaning moliyaviy resurslardan foydalanish siyosatiga bog'liq hisoblanadi;

moliyaviy ta'minotdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini yuqori ekanligi korxonani moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan birga strategik maqsadlarga erishishda muhim o'rin egallaydi.

Aksariyat iqtisodchi olimlarimiz ham o'z tadqiqotlarida moliyaviy ta'minot boshqaruvi va undan foydalanish samaradorligini oshirishga doir tadqiqotlar olib borgan bo'lib, ular tomonidan mavzuga doir yondashuvlar shakllantirilgan. Muallifning fikricha, kompaniyaning moliyaviy ta'minot samadorligini oshirish bilan bir qatorda investorlar uchun yuqori miqdorda foydani ta'minlashda bugungi kunda jahon amaliyotda keng qo'llanilayotgan usullardan kapital aktivlarni baholash, kapitalni rentabellik darajasini aniqlash va o'z mablag'lari, qarz mablag'lari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlagan holda moliyaviy ta'minotdan

⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan


foydalanish samaradorligini oshirish mumkin. Shuningdek, mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlarida bugungi kunda xorijiy tadqiqotlardan samarali foydalanish natijasida moliyaviy ta'minotning samaradorligi darajasi yuqori bo'ladi va kutilayotgan daromadni olish va belgilangan maqsadlarga erishish imkonini beradi.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi **“Moliyaviy ta'minotni boshqarish va samaradorligini oshirishning amaldagi holati tahlili (“O‘zmetkombinat” AJ misolida)”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati faoliyati va uni rivojlanish tendensiyalarining tahlil qilingan. Tahlil jarayonida jamiyatni rivojlanish tendensiyalari, xalqaro kapital bozorining ishtirokchisiga aylanish jarayonlari, moliyaviy ko‘rsatkichlari va ularni o‘zgarish omillari o‘rganilgan. Shuningdek, “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining investitsion faoliyati tahlil qilingan hamda investitsion qarorlar qabul amaliyoti bilan tanishib chiqilgan. Jamiyatning kapital bozoridagi faoliyatini tahlil qilish asosida kapital samaradorligini oshirishga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan. Hamda, mamlakatimizning eng yirik va faol aksiyadorlik jamiyatlari hisoblangan “Olmaliq KMK” AJ, va “QIZILQUMSEMENT” aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy tahlili qilinib, qiyoslovchi tahlillar natijalaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizdagi barcha aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ta'minotini boshqarish va samaradorligini oshirish yuzasidan ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirilgan.

O‘zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati (“O‘zmetkombinat” AJ) Markaziy Osiyoda qora metallurgiya sanoati to‘ng‘ichi va mamlakatimizda navli prokat mahsulotlari hamda po‘lat zoldirlar ishlab chiqaruvchi yirik korxona hisoblanadi. O‘zbekistondagi eng ko‘p soliq to‘lovchi korxonalarning 10 taligidan joy olgan “O‘zmetkombinat” AJda bugungi kunda 100 turdan ortiq mahsulot ishlab chiqarilmoqda. Ular jumlasiga qora va rangli metal mahsulotlari, qurilish materiallari va keng turdagi xalq iste'mol mollari kiradi.

2022-yilda kompaniya aktivlari 2021-yilga nisbatan 80,31 foizga oshib 7,98 trln.so‘mni tashkil etdi. Ta'kidlash lozimki, aktivlar xajmini o‘shirishga kompaniya tomonidan amalga oshirilgan aktivlarni modernizatsiyalash va transformatsiyalash borasida ishlarni natijalarni misol qilib keltirib mumkin. Bu o‘z navbatida kompaniyaning istiqbolli moliyaviy natijalarini barqarorlash va moliyaviy majburiyatlarni amalga oshirish imkonini bermoqda. Shuningdek, 2022-yil oxirida uzoq muddatli aktivlar jami aktivlarning 25,58 foizini yoki 2,04 trln so‘m (2020 yilga nisbatan 21,68 foizga ko‘p) va aylanma mablag‘lar 74,42% yoki 5,94 trln so‘mni (+80,31%) tashkil etdi (2-rasm).

2022-yil oxirida kompaniyaning inventarizatsiyasi 2,04 trln.so‘mni tashkil etdi, bu esa joriy yil boshiga nisbatan 116,11 foizga ko‘pdur. Kompaniyaning debitorlik qarzi 2,61 trillion so‘mni tashkil etib, o‘sdi yil boshiga nisbatan 66,76% ga. “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali 2021-yil yakuniga ko‘ra 3,10 trln. so‘mni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2020-yilga nisbatan 71,28 foizga ko‘p demakdir.



2-rasm. «O‘zmetkombinat» aksiyadorlik jamiyati asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari dinamikasi (trln.so‘m)⁵

Shu bilan birga, kompaniya ustav kapitalining 74,44 foizi yoki 2,30 trln so‘m (+130,03%) yillar davomida to‘plangan taqsimlanmagan foydadan iborat. 2022-yil yakuni bo‘yicha “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati majburiyatlari miqdori 4,87 trillion so‘mni tashkil etdi, bu 2021-yilning mos davriga nisbatan 86,56 foizga ko‘pni tashkil etgan. Kompaniya majburiyatlari umumiy hajmining 28,26% yoki 1,38 trln so‘m (+5,04%) uzoq muddatli bank kreditlari, qolgan 71,74 foizi yoki 3,50 trln. so‘m (+168,70%) (shundan 724,74 mlrd. so‘mi qisqa muddatli bank kreditlaridir) qisqa muddatli majburiyatlar hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, kompaniyaning sof majburiyatlari 2021-yilda 2,81 trillion so‘mni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 25,73 foizga oshganligini ko‘rish mumkin.

“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining uzoq muddatga mo‘ljallangan eng yirik loyihalaridan biri Quyma-prokat kompleksini ishga tushirish bo‘lib dastlabki prognozlarga ko‘ra loyihadan foydalanish muddati 2025-yil qilib belgilangan. Kompaniyaning debitorlik qarzi 2,61 trillion so‘mni tashkil etib, o‘sdi yil boshiga nisbatan 66,76% ga. “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali 2021-yil yakuniga ko‘ra 3,10 trln. so‘mni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2020 yilga nisbatan 71,28 foizga ko‘p demakdir. Shu bilan birga, kompaniya ustav kapitalining 74,44 foizi yoki 2,30 trln so‘m (+130,03%) yillar davomida to‘plangan taqsimlanmagan foydadan iborat. 2022-yil yakuni bo‘yicha “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati majburiyatlari miqdori 4,87 trillion so‘mni tashkil etdi, bu 2021 yilning mos davriga nisbatan 86,56 foizga ko‘pni tashkil etgan.

⁵«O‘zmetkombinat» aksiyadorlik jamiyatining yillik moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadval

“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatini 2021-2026 yillarga mo‘ljallangan investitsion loyihalari to‘g‘risidagi ma‘lumot (mlrd. so‘m)⁶

Loyihaning nomi	Loyihaning umumiy qiymati	Moliyalashtirish manbalari	
		O‘z mablag‘lari	Qarz mablag‘lari
Quyma va prokat majmuasini qurish	3472,10	285,80	3186,30
Metallurgiya uskunalarini yangilash, shu jumladan:	42,32	42,13	0,19
Po‘lat tegirmon ustaxonasi uchun rulon shakllantirish mashinasi	10,04	10,0	0,04
Ko‘p funktsional CNC silliqdash mashinasi	5,80	5,78	0,02
ZSX Primus IV to‘lqinli dispersli rentgen-lyuminescent qurilma	4,81	4,80	0,01
10 tonnalik portalli kran sotib olish	4,0	4,0	-
5 o‘qli gorizontal frezalash ishlov berish markazi	3,50	3,45	0,05
Markaziy laboratoriya ustaxonasi uchun optik emissiya spektrometri	2,74	2,70	0,04
Boshqalar	11,43	11,40	0,03
Avtotransport parkini yangilash:	11,90	11,82	0,08
Paletli ekskavator	2,0	2,0	-
Lonking rusumli old yuklagich	1,60	1,60	-
G‘ildirakli mini ekskavator EW60C	1,50	1,50	-
G‘ildirakli ekskavator gidravlik bolg‘a bilan	1,50	1,50	-
Isuzu FVR 33 P (CNG)	1,50	1,46	0,04
Boshqalar	3,80	3,76	0,04
Boshqa investitsion loyihalar:	187,64	187,51	0,13
Bekobod sh. Muz arenasi qurish	46,0	46,0	-
ESPC ishlab chiqarish quvvatini 1,1 million tonnagacha oshirish	34,50	34,50	-
SPV-1 uchun 3-sonli pechning qurilishi	35,0	34,96	0,04
4-sonli yangi ShPS liniyasini qurish	22,54	22,50	0,04
Yuqori chidamli koks ishlab chiqarish	11,50	11,47	0,03
Boshqalar	38,10	38,08	0,02
3713,96	527,26	3186,7	

Kompaniya majburiyatlari umumiy hajmining 28,26% yoki 1,38 trln so‘m (+5,04%) uzoq muddatli bank kreditlari, qolgan 71,74 foizi yoki 3,50 trln. so‘m

⁶ <https://old.uzbeksteel.uz/Korporativ-Boshqaruv/Malumotnioskoriqilish/1252> - ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

(+168,70%) (shundan 724,74 mlrd. so‘mi qisqa muddatli bank kreditlaridir) qisqa muddatli majburiyatlar hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, kompaniyaning sof majburiyatlari 2021-yilda 2,81 trillion so‘mni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 25,73 foizga oshganligini ko‘rish mumkin.

“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining uzoq muddatga mo‘ljallangan eng yirik loyihalaridan biri Quyma-prokat kompleksini ishga tushirish bo‘lib dastlabki prognozlarga ko‘ra loyihadan foydalanish muddati 2025-yil qilib belgilangan. Majmuaning umumiy maydoni 15,5 gektar bo‘lib loyiha umumiy qiymati 672 mln. yevro hisoblanadi, agar bugungi kunda kompaning kapitallashuvi 360 mln. dollarni tashkil etilayotganligini inobatga oladigan bo‘lsak, mazkur loyihani to‘liq ishga tushirilishi natijasida kompaniyaning moliyaviy imkoniyatlari va salohiyati ikki barobarga oshishini tahmin qilin qiyin emas. Mazkur loyiha umumiy moliyalashtirish manbalari hususida fikrlarimizni davom ettiradigan bo‘lsak, loyiha ikki manba hisobiga ya’ni qarz mablag‘lari 419 mln. yevro va o‘z mablag‘lari 253 mln. yevroni tashkil etmoqda (1-jadval).

2-jadvalda tanlangan loyihalar uchun matritsali yechimlar keltirilgan bo‘lib, bunda i - qator i varianti uchun vektor mezonining qiymatlariga mos keladi, ya’ni $f(x_i)$.

2-jadval

Tanlangan investitsiya loyihalari uchun matritsali yechimlar⁷

<i>Investitsion loyihalar</i>	<i>$f_1 - NPV$, mln.so‘mda</i>	<i>$f_2 - IRR$, %</i>	<i>$f_3 - PP$, yil</i>	<i>$f_4 - PI$</i>	<i>$f_5 - NFV$, mln.so‘mda</i>
1-loyiha	14200	23,5	2,5	1,1	123540
2-loyiha	11200	19,7	1,3	1	97440
3-loyiha	15600	27,1	4,5	1,9	135720
4-loyiha	10104	25,7	3,5	1	87904,8
5-loyiha	17200	23,1	3,2	1	149640
6-loyiha	21300	27,4	3,8	1,3	185310
7-loyiha	15060	17,6	3,5	1,2	131022
8-loyiha	16200	20,7	2,8	1	140940
9-loyiha	12900	18,5	2,9	1,1	112230
10-loyiha	10809	23,9	1,9	1,5	94038,3

Keyingi bosqichda investitsion loyihalar bo‘yicha optimal variantlar M_p ni ajratish hisoblanadi, ular ketma-ket saralash variantlari va vektor mezonining qiymatlarini juftlik bilan taqqoslashga asoslangan. Masalan, 1-loyiha uchinchi loyihaga nisbatan samaradorligi yuqori, ya’ni $f_j(x_1) \leq f_j(x_3)$, $j = (1,5)^-$ bo‘lganligi uchun $x_1 > x_3$ bo‘ladi. Shuning uchun qolgan loyihalar bo‘yicha ham quyidagicha ifodalash mumkin bo‘ladi:

$$x_2 > x_3, x_4 > x_6, x_5 > x_6, x_7 > x_6, x_8 > x_6, x_9 > x_6, x_{10} > x_6, x_2 > x_1, x_8 > x_5$$

Shunday qilib, quyidagi variantlardan iborat ko‘plab samarali echimlar aniqlandi:

$$M_p = \{x_2, x_4, x_7, x_8, x_9, x_{10}\}.$$

⁷ Muallif tomonidan hisoblandi.

Yuqoridagilar asosida yechimlarning tegishli matritsasi quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

